

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, siyosiy diskursda vositalar va usullar bilan ifodalangan xalqchilik ruhi kuchli bo'ladi. Bu siyosiy diskursning oldiga qo'ygan maqsadlariga mutanosib ravishda vazifalariga bog'liq bo'ladi. Negaki, xalq ruhiyatiga hamda tiliga mos so'zlar va iboralar auditoriyani o'ziga jalb qila oladi. Siyosiy nutq va siyosiy lingvistikaning strukturaviy funksional tahlili dastlab yunon faylasuflari Platon, Aristotel qarashlarida ifodalangan holda bugun kun faylasuflari hamda lingvistlarining diqqat e'tiborida hamda tadqiqot obyekti bo'lib kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Aripova A. H. Notqlik nutqining lisoniy-uslubiy vositalari. Fil. fan.. nomz. diss. – T. 2002.
2. Sodiqov Q. Eski o'zbek yozma adabiy tili. –Toshkent: Akademnashr, 2022. –b.527.
3. Шейгал Елена Иосифовна. Семиотика политического дискурса . Дис. ... д-ра филол. наук: 10.02.01 10.02.19 - М.: РГБ, 2005 (Из фондов Российской Государственной Библиотеки, [Электронный ресурс]).
4. Арутюнова, Н. Д. Язык и мир человека [Текст] / Н.Д.Арутюнова. – М.: «Языки русской культуры», 1999. – 896 с.
5. Ван Дейк Т. А. Дискурс и власть: Репрезентация доминирования в языке и коммуникации. Пер. с англ. — М.: Книжный дом «ЛИБРОКОМ», 2013. – С. 20
6. Сияева Г. Сиёсий дискурс (фалсафий тадқиқот). -Toshkent: «Akademiy». 2016. –b. 54
7. Platon. Sobr.soch.t.2., 1970. - S. 202.

DUNYO HAQIDAGI KONTSEPTUAL BILIMLARNI TEZAURUS SHAKLIDA IFODA ETISHNING AHAMIYATI THE IMPORTANCE OF EXPRESSING CONCEPTUAL KNOWLEDGE ABOUT THE WORLD IN THE FORM OF A THESAURUS

Sabohat Qahharova *

Annotation. *the rapid development of technology, as in all other fields, requires changes in the form and appearance of existing dictionaries in linguistics. From this point of view, the thesaurus, one of the new types of dictionaries, which is considered a clear example of the systematic nature of the language today, has a number of conveniences for users. For this reason, this article provides information about the thesaurus and its differences and advantages over traditional explanatory dictionaries.*

Key words: *thesaurus, explanatory dictionaries, semantic relations, linguistic material, lexical units, denotative and communicative meanings*

Hozirgi tilshunoslikda dunyo olimlari tilning leksik tarkibini tizimli-strukturaviy jihatdan tadqiq etish, xususan, leksik birliklarni tizim elementlar sifatida o'rganish bilan shug'ullanmoqda. Bunday yondashuv nafaqat lug'atni o'rganish, uning yangi variantlarini ishlab chiqish, balki til birliklari semantikasining chuqur tuzilmalarini ochib berishni belgilaydi. Bugungi kunga qadar mavjud lug'atlarning takomillashgan variantlaridan biri bu tezaurus bo'lib, u borliqni samarali idrok etish uchun zarur bo'lgan har qanday sohadagi bilimlarni tavsiflashning eng maqbul usuli bo'lib qolmoqda.

Tezaurus ingliz tiliga XVI asrda lotin tilidan kirib kelgan, u lotin tilidagi *tezaus*dan, qadimgi yunon tilidagi thesauros so'zidan olingan bo'lib, "*omborxona*" yoki "*xazina*" degan ma'noni anglatadi (shuning uchun o'rta asrlardagi *tezaurer* darajasi xazinachining sinonimi sifatida ishlatilgan). [Roget's, 1988]. Ingliz tilida qo'llanilgan dastlabki uch asr davomida tezaurus atamasi lug'at yoki ensiklopediya kabi bilimlar to'plamini o'z ichiga olgan har qanday manbani anglatish uchun keng qo'llanilgan. Tezausning asoschisi ingliz fizigi, shifokori va lug'atshunosi Piter Mark Rojer hisoblanadi. 1852-yilda u tezausga nisbatan "ma'noga ko'ra tartiblangan so'zlar yig'indisi" degan ta'rifni qo'llagan

* Tayanch doktorant, O'zbekiston Milliy universiteti, sabohatqahharova922@gmail.com

[<https://en.wikipedia.org/wiki/Thesaurus>], shu bilan bir qatorda u har bir guruhni kontsepsiya nomi bilan atagan holda uni guruhlarga ajratgan, keyin uning nutq tarkibidagi ba'zi sinonimlari, turdosh otlarning ro'yxatlari, shuningdek, boshqa toifadagi nomlarga havolalar bergan. Bunday lug'at har bir tilning so'z boyligini to'liq tavsiflash bilan birga u muhim tushunchalarni tez qidirish sifatida ham ishlatilishi jihatdan ahamiyatli sanaladi. Birinchi tezaurus davridan to hozirgi kungacha ko'plab bilim sohalarida qo'llaniladigan va butun dunyoda keng tarqalgan ushbu turdagi lug'at muntazam o'zgarib, hozirgi davr tilshunosligida mazkur atamaning ma'nosi ancha kengaydi:

- 1) leksik birliklar orasidagi semantik munosabatlari tavsiflanadigan umumiy yoki maxsus lug'atlarning mukammal namunasi;
- 2) so'zni boshqa so'zlar bilan semantik aloqasi bo'yicha qidirish uchun lug'at;
- 3) lug'atda so'zlarni tartibga solishning ma'lum bir usuli;
- 4) iqtisodiy jihatdan "dunyoni modellashtirish" imkonini beradigan leksik tarkibni tashkil qilish usuli [<http://lcweb.loc.gov/z3950/agency/profiles/zthes-04.html>].

Tezaurus haqidagi birinchi tavsifda tilshunos L. V. Shcherba "Umumiy leksikografiya tajribasi" [ИлгепѢа, 2007: 212 - 252] kitobida og'zaki nutqda leksik birliklar orasidagi semantik munosabatlar (sinonimlar, antonimlar, paronimlar, giponimlar, gipernimlar va boshqalar)ni tavsiflash murakkab jarayon ekanligini hisobga olgan holda yozma nutqda nashr etilgan matnlarga tayanib ish ko'rish lozimligini (uni o'z navbatida "lingvistik material" deb ataydi), matnlarni tushunish va yangilarini yaratish uchun barcha "lingvistik materiallarni" o'zlashtirish kerakligini, lug'aviy biliklarning ma'nolaridan kelib chiqib ularni voqelikka, ya'ni nutqda qo'llash qoidalarini yoritib berish zarurligini ta'kidlaydi (buni esa u "til tizimi" deb nomlaydi). Ammo bu nihoyatda murakkab jarayon. Ma'lum bir tilda har bir leksik birlikning barcha denotativ va kommunikativ ma'nolarini aniqlash, ularning ta'riflarini shakllantirish, guruhlash, tizim sifatida tartibga solish ko'p vaqtni talab qiladi.

Bu atamaning ikkinchi va uchinchi ma'nolari P.M. Rogetning "Tezaurus bilan bog'liq inglizcha so'zlar va iboralar" deb nomlangan lug'at-tezaurusi bo'lib, u leksik tarkibni tartibga solishning ma'lum bir usulini bildiradi.

Tezaurus atamasining to'rtinchi ma'nosi iqtisodiy jihatdan "dunyoni modellashtirish" imkonini beradigan, leksik tarkibni tartibga solish usulining umumiy e'tirofi bilan bog'liq. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, tezaurus lug'at - bu har qanday ilmiy yoki texnik sohaning hamda ma'lum bir tilning butun so'z boyligini tizimli ravishda tartibga soladi.

Tezaurus lug'atlarni o'zbek tilidagi mavjud izohli lug'at bilan taqqoslaganimizda uning bir qator afzallik xususiyatlarini aniqlashimiz mumkin. Buning uchun o'zbek va ingliz tillaridagi mavjud izohli lug'atlarda nutqimizda faol ishlatiladigan "kechirasiz" ("excuse") va "uzr" ("sorry") leksemalar misolida tahlil qilib ko'ramiz:

Birinchidan, "kechirasiz" va "uzr" leksemalari ma'nodosh tushunchalar bo'lishiga qaramay besh jidli izohli lug'atning alohida jildlarida: "kechirasiz" so'zi ikkinchi jildda, "uzr" so'zi to'rtinchi jildda tahlil qilinganligini ko'rish mumkin. Sinonim tushunchalarning bir joyda ketma-ket berilmaganligi bir tarafdin xorijlik talabalarining o'zbek tilidagi so'zlarning ma'nolarini o'rganishi uchun lug'atlardan foydalanishiga qiyinchilik tug'dirsa, ikkinchi tomondan esa tarjima jarayonida ba'zi murakkablik va chalkashliklarni yuzaga keltiradi. Tezaurus lug'atlarda esa har bir leksema sinonim guruhlarda, uning semalari, boshqa leksemalar bilan birikish imkoniyatlari (valentliklari), sintagmatik va paradigmatic munosabatlari yaxlit holda bir o'rinda qayd etilishi sababli bu kabi muammolar yuzaga kelmaydi.

Ikkinchidan, ingliz tilida "Excuse" ("kechirasiz") leksemasi biror kishidan biron narsa so'rash, murojaat qilish uchun, ya'ni uning qimmatli vaqtini olish mumkinligi sababli (hali amalga oshmagan xatti-harakat uchun) oldindan aytiladigan so'z sifatida ishlatiladi va shu maqsadda nutqda ko'p qo'llaniladi. "Sorry" ("uzr") leksemasidan esa umuman boshqa vaziyatlarda biror notog'ri qilingan ishdan afsuslanganlikni, xafa bo'lganlikni tinglovchiga bildirish uchun foydalaniladi. Bu kabi leksemalarni yuksak odob-axloqning namunasi sifatida

ham e'tirof etish mumkin, bu millatlararo farqlanib, lingvomadaniyat bilan bog'liq shaklda tadqiq etiladi.

Afsuski, o'zbek tilidagi mavjud izohli lug'atlarida, hatto sinonimik lug'atlarda ham mazkur leksemalarning ishlatilish o'rinlari to'raligicha qayd etilmagan. A. Hojiyevning «O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati» da kechirim so'zining sinonimlari: kechirim, uzr, afv so'zlari quyidagicha tavsiflanadi: «*Kechirim, uzr* so'zlari «*biror gunoh-aybni kechirish iltimosi*» ma'nosida ham, shuningdek, umuman, «*kechirish*» ma'nosida ham qo'llanadi. *Afv* so'zi, asosan, «*gunoh-aybni kechirish iltimosi*» ma'nosida qo'llanadi, shu ma'noda ham juda kam qo'llanadi» [Hojiyev, 1974: 125].

Bizningcha, *kechirim* so'zi bosh so'z sifatida «*umuman biror gunoh-aybni kechirish iltimosi*», *uzr* so'zida aybning eng kichik darajasi (bexosdan birovga turtinib ketish, biron joyga ma'lum bir sabablarga ko'ra sal kechikib qolish yoki ushlanib qolish kabi) sodir etilgandagina ishlatiladigan so'z bo'lib, *afv* leksemasi esa aybning og'irroq turi – *gunoh* ishlar ro'y bergandagina qo'llaniladi.

Aytish mumkinki, o'zbek tilida *kechirim, uzr, afv* leksemalarning ma'nolari, turkumlararo farqlanishi (masalan, xuddi shu ma'noni o'zida ifoda etuvchi «kechirasiz» so'zi faqat murojaat maqsadida ishlatiladigan undov so'z bo'lib, u izohli lug'atda alohida berilishi kerak edi) izohli lug'atda; uning ma'nodoshlari, qo'llanilish o'rinlari sinonim lug'atlarda batafsil berilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Demak, mavjud lug'at va tezauruslar tashqi bilimlarni olishga va uni oshirishga yordam beradigan turli xil so'zlarni o'z ichiga olgan qimmatli manba sanaladi. John Pratt bir necha mezonlarga ko'ra **lug'at va tezaurus o'rtasidagi farqlarni quyidagicha keltiradi** [<https://uz.maywoodcuesd.org/difference-between-dictionary-and-thesaurus-1852/>]:

Taqqoslash parametri	Lug'at	Tezaurus
Ta'rif	Ma'lumotni, ta'rifini, ishlatilishini, etimologiyasini, talaffuzini, tarjimasini ta'minlovchi alifbo bo'yicha ma'lum bir tildagi so'zlar to'plami	Sinonimlar yoki antonimlarni ta'minlaydigan, shu bilan bir qatorda, bir tartibda keltirilgan so'zlar to'plamlari
Birinchi nashr	Miloddan avvalgi 2300-yilda zamonaviy Suriyada	1852-yilda Peter Roget tezaurusi
Tartibga solingan	Alifbo tartibida joylashtirilgan	Alfavit yoki kontseptual tartibda joylashtirilgan
So'zlar	Oksford lug'atida 500000 so'z bor	Eng katta tezaurusda 920 mingdan ortiq so'z bor
Foydalanish	Ko'plab odamlar foydalangan	Kam miqdordagi odamlar foydalanadi
Til	So'z boshqa tillarda nimani anglatishini bildiradi	Faqat bitta tilda

Ko'rinadiki, tilshunoslik uchun **lug'atning ham, tezaurusning ham o'z o'рни, vazifasi, ahamiyati bor. Ammo hozirgi kunda** tezauruslar alohida so'zning ma'noviy guruhlarini elektron formatda tavsiflashning eng samarali vositalaridan biri hisoblanadi. Bu bir tarafdin sifatli tarjima jarayonini amalga oshirishda ancha qulayliklarni yuzaga keltiradi.

Tezaurusning asosiy maqsadi foydalanuvchilarga ular ifodalamoqchi bo'lgan g'oya yoki tushunchaga mos keladigan so'z, so'z birikmasi, iboralarni topishga yordam berishidir. Har bir tezaurus boshqacha bo'lishi mumkin, ammo maqsad bitta: nimani nazarda tutayotganingizni aytishning muqobil usullarini taqdim etish va bu muqobillar orasidagi farqlarni taklif qilishdan iborat.

Shunday qilib, tezaurusning vazifasi asosiy semantik maydonlarni, ularning ichki tuzilishi va tashqi aloqalarini ko'rsatib, lingvistik materialning ma'lum bir bo'lagining semantik tashkil

etilishi haqida tushuncha berishdir. Tezaurus - bu tilning tizimli tabiatining yaqqol namoyonidir, bu bizga individual lingvistik birliklar va birliklar guruhlarini bir-biriga bog'laydigan ko'p turdagi munosabatlarni ko'rishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hojiyev A. O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati. — T: O'qituvchi, 1974. — 308 bet. 125-b
2. Л. В. Щерба «Опыт общей теории лексикографии»,. Книга была издана в 2007 году. Содержит с. 212 – 252
3. Roget's II: The New Thesaurus (Boston: Houghton Mifflin, 1988)
4. <https://en.wikipedia.org/wiki/Thesaurus>
5. <http://lcweb.loc.gov/z3950/agency/profiles/zthes-04.html>
6. <https://uz.maywoodcuesd.org/difference-between-dictionary-and-thesaurus-1852>

PRETSEDENT NOMLARNING INTERTEKSTUAL TEZAURUS YARATISHDAGI AHAMIYATI THE IMPORTANCE OF PRECEDENT NAMES IN CREATING AN INTERTEXTUAL THESAURUS

Zarifa O'rinova *

Annotation. *In this small research work, the basics of creating an intertextual thesaurus dictionary of the Uzbek language, the importance of precedent names in creating an intertextual thesaurus, their use as allusive names, the linguopoetic function of precedent names in Uzbek poetry were studied as an object of research.*

Key words: *Computational linguistics, thesaurus, intertextuality, predicate noun, dictionary, allusive noun, allusion.*

Ma'lumki, XXI asr insoniyat tarixida "Axborot texnologiyalari asri", "Internet asri" sifatida e'tirof etilmoqda. Buning negizida, "Elektron ta'lim", "Elektron boshqaruv", "Ochiq ta'lim", "Masofaviy ta'lim", "Axborotlashgan ta'lim" kabi tushunchalar kundan-kun singib bormoqda. Bundan bir necha yil oldin "kompyuter" so'zi neologizm sifatida baholanar edi. Hozirgi texnologiya asrida esa kompyuterlashmagan sohaning o'zi yo'q. Shunday sohalardan biri tilshunoslik bo'lib, bunda kompyuter lingvistikasi nomli yangi zamonaviy tilshunoslik sohasi vujudga kelishiga asos bo'ldi. Kompyuter lingvistikasi - bu lingvistik masalalarni yechishda kompyuter dasturlari va ularning lingvistik bazasini yaratish, tabiiy tilni qayta ishlash, inson va kompyuter muloqotini optimallashtirish bo'yicha ta'lim va tadqiqot sohasidir. Tilshunoslikning ushbu zamonaviy yo'nalishi lug'atlarni elektron holatda yaratish imkoniyati yuzaga keltirdi. Kompyuter yordamida lug'atlar bilan ishlashning optimallasuvi natijasida kompyuter leksikografiyasi yo'nalishi shakllandi. Kompyuter leksikografiyasi amaliy tilshunoslikning muhim tarkibiy qismi bo'lib, unda lingvistik va dasturiy ta'minot asosida ishlaydigan, kodlash va dekodlash prinsipi asosida yaratilgan kompyuter lug'atlari, ularni tuzish dasturlari, algoritmlari o'rganiladi. Mazkur sohaning rivojlanishi natijasida turli nomlarda elektron lug'atlar yaratilmoqda. Shunday elektron lug'atlardan biri Tezaurus lug'atidir.

Tezaurus (thesauros) grek tilidan olingan bo'lib, «xazina» ma'nosini anglatadi. Tezaurus lug'atda har bir so'zning sinonimi, antonimi, etimologiyasi, omonimi va u bilan birika oladigan so'zlar qatori ochib beriladi. Tezaurus birinchi navbatda so'zlar va ularning matndagi qo'llanishiga doir misollar izohlangan maksimal darajada to'liq lug'at hisoblanadi. Hozirgi tilshunoslikda tezaurus leksik birliklar o'rtasidagi semantik munosabatlar (sinonimlar, antonimlar, paronimlar, giponimlar, giperonimlar) ko'rsatilgan umumiy yoki maxsus leksika lug'atidir. Tezauruslar, asosan, elektron ko'rinishlarda yaratiladi va muayyan predmetlar

* O'qituvchi, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, zarifaorinova@gmail.com